

O'TMISH, BUGUN, KELAJAK: BASHARIYAT TARIXIDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATI VA TADRIJIY RIVOJLANISHI

Sharofov Umidjon Nizomovich

Buxoro Davlat Universiteti

“Tarix va Yuridik” fakulteti

“Yurisprudensiya” yo`nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: umidjonsharofov2@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8020590>

Annotatsiya: Insoniyat vujudga kelgandan buyon insonlarga nisbatan qadimdan bo'lib kelayotgan zo'ravonlikni, zulm va shafqatsizliklarni oldini olish, ulardagi qo'rquv va vaxshilikni yo'qotish, shuningdek, ularning huquq va erkinliklarini qonun bilan kafolatlash, inson huquqlariga nisbatan hurmat hissini uyg'otish, huquqbuzarliklardan himoya qilinish yo'llari va vositalarini izlab kelmoqda. Albatta, yuqoridagi muammolar dunyoning rivojlangan mamlakatlarida inson huquqlarini ta'minlovchi yagona huquq tizimini yaratishga asos bo'ldi. Ya'nikim, bu tizim inson huquq va erkinliklarini har qanday buzilishini sud tomonidan himoya qilinishi, shu bilan birgalikda, ularning umumiy qadriyatlari, ayollar va bolalar huquqlarini qonun bilan kafolatlash, demokratik jamiyat qurish va xalqaro hamkorlikda inson huquqlariga e'tibor berilishini nazarda tutadi.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, demokratik, qadriyat, daxlsizlik, ijtimoiy ta'minot, sofist, antropotsentrizm, antik, buyuk ozodlik xartiyasi, qirol hokimiyati, parlament, cheksiz hokimiyat, burjua inqilobi, deklaratsiya, bill, ratifikatsiya, komissiya, fundamental, institutsionalizatsiya, gender tensizlik.

Kirish:

“Har qanday siyosiy ittifoqning maqsadi insonning tabiiy va ajralmas huquqlarini ta'minlashdir. Bu huquqlar erkinlik, mulk, xavfsizlik va zulmga qarshi turishdir.

Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi. 1789-yil. Fransiya

Siz qachondir inson huquqlari haqida o'ylab ko'rganmisiz? Agar siz XXI asrda yashayotgan bo'lsangiz, sizga bu qandaydir hayotga hech qanday aloqasi bo'lmagan mavhumroq birikmadek tuyulayotgan bo'lsa adashmagan bo'lasiz. Darhaqiqat, bu bizning hayotimizning ajralmas bir qismi bo'lib, turmush tarzimiz bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur maqolada inson huquqlari nima ekanligini, qanday paydo bo'lgani va ular nima uchun kerakligi haqida so'z yuritiladi.

Asosiy qism:

Inson huquqi nima? Inson huquqi – shaxsning hayotiy ehtiyoji, yashashi, komil topishi uning jamiyat, davlat va boshqa shaxslar bilan aloqasi uchun zarur bo'lgan xususiyatlari.

Inson huquqlari erkinlik, tenglik, o'zaro hurmat va adolat kabi qadriyatlarga asoslanadi. Bu qadriyatlar tasodifan tanlanmagan, chunki ular insonning munosib yashashi uchun sharoit yaratadi. Qoidaga ko'ra inson huquqlari 5 toifaga bo'linadi. Birinchi toifa bu shaxsiy huquqlar deb nomlanadi. Shaxsiy huquqlar bu yashash huquqi, shaxsning daxlsizligi va uning shaxsiy yozishmalari, turmush qurishi, vijdon, din erkinligi va boshqalar. Insonning siyosiy huquqlari ham mavjud. Unga qonun oldida tenglik, so'z va matbuot erkinligi, mamlakatni boshqarishda ishtirok etish, erkin holda yig'ilishlar o'tkazish, ariza berish kabi huquqlar mansub. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga asosan mehnat huquqlari kiradi. Bular, oila qurish, onalik, otalik qilish, ijtimoiy ta'minot va bolalarni himoya qilish huquqi hisoblanadi. Oxirgi, lekin eng muhim

toifalar madaniy va ekologik huquqlardir. Birinchisi shaxsning ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Bu ilm o'rganish, san'atda ijod qilish, olgan bilimlarini keyingi avlodlarga qoldirish maqsadida ta'lim berish erkinligidir. Ekologik huquqlar tegishli ravishda qulay atrof-muhit holati to'g'risida ishonchli ma'lumot olish huquqini va ekologik huquqbuzarliklar natijasida sog'liq yoki mulkka yetkazilgan zararni qoplash huquqini o'z ichiga oladi. Bular inson qadr-qimmatini asrash, ya'ni mustaqil yashash, o'z hayotiga ma'sul bo'lish, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish, xavfsizlik va adolatli jamiyatda yashash imkonini beradigan asosiy shartlardir. Nega? Hamma insonlar teng va tug'ilishidan erkin bo'lganligi sababli, har bir inson qadrlidir.

Inson huquqlarini e'lon qilgan birinchi hujjat Kirning manifesti deb e'tirof etilgan. Bizning hududimizga sayohat qilishdan oldin, Kir o'zining yutuqlari ro'yxatini, Bobilda qullikni bekor qilish, irqiy tenglik va din erkinligini e'lon qilish to'g'risida manifestni loy silindrga o'yib yozishni buyurdi. Albatta, antik davrining birorta hujjati ham bugungi kunda biz bilgan ma'noda inson huquqlariga yaqin emas. Birinchidan, bu qonunlar universal bo'lmagan. Qirollar, masalan, zodagonlar yoki oddiy odamlardan ko'ra ko'proq huquqlarga ega edi. Chunki ularning hokimiyati ilohiy kelib chiqqan deb hisoblangan. Inson qadr-qimmatini va erkiligi yoritib beruvchi ildiz antik falsafasi edi. O'sha davrda inson huquqlari to'g'risidagi ta'limotni sofist Protargol ishlab chiqqan. U "inson hamma narsaning o'lchovidir" deb aytgan. Yana bir sofist Antifon o'zining haqiqat haqidagi risolasida tabiatan hamma teng ekanligini ta'kidlagan. Shunday qilib, asta-sekin antropotsentrizmning poydevori qo'yila boshladi. Suqrot, Platon, Aristotel, Mark Avreliy, Siseron qadimgi dunyoda inson huquqlari mavzusida ijod qilganlar. Endi esa Afina kabi qadimgi yunon mamlakatlari siyosatida mavjud bo'lgan, lekin ko'p asrlar davomida unutilgan XII asrdan boshlab xalq hokimiyati shakllana boshlagan Markaziy Yevropaga qaytamiz. Parlamentlarning birinchi shakllari Shotlandiya, Polsha, Leon Qirolligi va Parijda paydo bo'lgan. Umumman olganda, inson huquqlarining paydo bo'lishi ko'pincha davlatning rivojlanishi bilan bog'liq. 1215-yilda Angliyaning erkin aholisi, zodagonlar orasidan badavlat kishilarning qonuniy huquqlarini himoya qiluvchi buyuk ozodlik xartiyasi qabul qilindi. Bu hujjat ingliz zodagonlarining qirol hokimiyatini qonun bilan cheklash haqidagi talablar natijasi edi. Keyinchalik bu hujjatga o'zgartirishlar kiritildi. XVII asr o'rtalarida Angliyada inqilob davrida xartiya qirolning cheksiz hokimiyatiga qarshi siyosiy erkinlik ramziga aylandi. 1689-yilda Angliya parlamenti "Inson huquqlari bo'yicha bill" ni qabul qilganidan keyin fuqarolar yanada ko'proq huquqlarga ega bo'ldilar. Ushbu hujjatda so'z erkinligi, qirolga murojaat qilish erkinligi, shafqatsiz va haddan tashqari jazodan himoya qilish, xususiy mulkni himoya qilish kafolatlari mavjud.

Buyuk burjua inqilobi qamrab olgan Fransiyada 1789-yilda muhim hujjat qabul qilinadi. Bu 17 qismdan iborat bo'lgan inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi edi. Mazkur deklaratsiyaning 2-moddasida har bir ittifoqning maqsadi insonning erkinlik, xavfsizlik, mulk daxlsizligi kabi tabiiy va ajralmas huquqlarni ta'minlashdan iboratligi qayd etilgan. Shu davrdan boshlab inson huquqlari degan birikma mavhum atama bo'lishdan to'xtadi va davlatning bosh qomusi sanalmish Konstitutsiyaning bir qismiga aylana boshladi. Xuddi shu yilda amerikalik siyosatchi va bo'lajak AQSHning to'rtinchi prezidenti Jeyms Medison AQSH Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritishni taklif qiladi. O'zgartirishlar to'plami "Huquqlar to'g'risida bill" deb nomlandi. Hujjat 1791-yilda kuchga kirgan va shu vaqtdan beri amerika qonunchiligining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Unda inson huquqlarini ifodalovchi

moddalardan tashqari, qurol olib yurishga oid moddalar ham mavjud. Bu huquq zamonaviy Amerikada ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Asosiy o'zgartirishlarga qaytsak, ular 10 ta o'zgarishni tashkil etgan. Ular mamlakat fuqarolariga so'z erkinligi, din erkinligi, matbuot erkinligi, yig'ilishlar o'tkazish, ariza berish huquqi, adolatli sudlov huquqi, xususiy mulkni himoya qilish, ortiqcha va shafqatsiz jazoni taqiqlashdan iborat. Xo'sh! Buni bizga nima aloqasi bor? degan savol tug'iladi. Bu hujjatlarning barchasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilda qabul qilingan inson huquqlari deklaratsiyasining asosiga aylandi. Endigina yakuniga yetgan ikkinchi jahon urushi davrida sodir etilgan jinoyatlarning aql bovar qilmaydigan shafqatsizligi dunyoni umuminsoniy huquqlarni qabul qilishga undadi. Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 30 moddadan iborat deklaratsiyasi inson huquqlarini himoya qilishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu dunyodagi eng ko'p tarjima qilingan hujjatdir. 2018-yilga kelib inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 500 dan ortiq tillarga tarjima qilindi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi maslahat xarakteriga ega, ammo amalda yillar davomida uning qoidalari allaqachon norma doirasiga aylangan. Bundan tashqari, deklaratsiya qabul qilingandan beri u kamsitishlarga qarshi ko'plab hujjatlarni ishlab chiqdi. Ushbu hujjatni ratifikatsiya qilish orqali BMTga a'zo har bir davlat o'ziga xos majburiyatlarni oladi. Masalan, xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida yoki nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiya. Bu ikkala hujjat ham O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan, ya'ni davlatimiz birorta ham ayol yoki nogiron kishi kamsitilmasligi uchun sharoit yaratish majburiyatini olgan. Inson va fuqaro huquqlari to'g'risida deklaratsiya, amerikaliklarning bill huquqlari, BMTning inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, qadimgi dunyo faylasuflari va XVIII asr mutafakkirlari asrlar davomida o'z asarlarida ishlab chiqqan qonun va qoidalar, normalar tabiiy huquq go'yasiga asoslanadi. Qadim zamonlardan beri faylasuflar ko'p aytib o'tgan inson huquqlarining tabiiy kelib chiqishi shuni anglatadiki, hech bir davlat bu huquqlarni odamlardan bekor qila olmaydi yoki tortib ololmaydi. Davlat bu huquqlarning manbai hisoblanmaydi. Shaxs fuqaroligidan qat'i nazar, bu huquqlarga ega bo'lib tug'iladi. Bundan tashqari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ham o'z huquqlariga ega.

Hozirgi kunda inson huquqlari nafaqat falsafiy, balki qonuniy mazmunga ega. Bu shuni anglatadiki, barcha shaxslar yoshi, jinsi, irqi, dini, millati, e'tiqodidan qat'iy nazar tengdir. Umumman olganda, hech kim biror kishini huquqlardan mahrum qila olmaydi. Biroq, huquqlar cheklanishi bo'yicha istisno holatlar ham mavjud. Agar shaxs sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilsa, u erkinlik huquqidan mahrum etiladi, lekin bu faqat qonuniy tartibda sodir bo'lishi kerak. Shaxsni shunchaki ushlab qamash yoki uni ozodlik huquqidan mahrum etishga hech kimning haqqi yo'q. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 9-moddasida quyidagi norma belgilab qo'yilgan: "Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas"[1].

Inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar inson huquqlarini himoya qilinishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Inson huquqlari himoya qilinadigan mamlakatlarda fuqarolari o'rtacha hisobda inson huquqlari muntazam ravishda buziladigan mamlakatlarga qaraganda yaxshiroq yashaydi. Gap shundaki, zamonaviy iqtisodiyot davlatga emas, shaxslarga qarab ishlaydi, chunki odamlarsiz davlat mavjud bo'lmaydi. Inson huquqlari mavhum ibora bo'lmagan mamlakatlarda qonunlar odamlarni cheklamaydi, balki ularning huquq va erkinliklariga rioya etilishini ta'minlaydi, shunda fuqarolar hech kim o'z bizneslarini ulardan

tortib olmasliklariga, xususiy mulkining daxlsizligiga ishonch hosil qilishlari mumkin. Bunday jamiyatlarda odamlar yaxshi bilim olishlari, ishga kirishlari yoki biznes boshlashlari mumkin va bu mamlakat uchun juda foydali. Chunki soliqlar orqali davlatni fuqarolar qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, mamlakatda qanchalik baxtli, badavlat, tirishqoq odamlar bo'lsa, shunchalik davlat boy bo'ladi, rivojlanadi. Endi inson huquqlari umumman himoya qilinmaydigan jamiyatni tasavvur qilib ko'ring. Bunday jamiyatda jinoyat sodir etish va undan qochish oddiy holga aylanadi. Har qanday odam sizning uyingizga kelib, bu uy hozir sizga tegishli emasligini aytishi mumkin. Siz biror ishga joylashmoqchi bo'lsangiz sizni inkor etishi mumkin. Sizning hayotingiz, shaxsiy mulkingiz yoki shaxsingizga nisbatan bo'ladigan tajovuzdan himoya qila oladigan birorta tashkilot yoki organ mavjud bo'lmaydi. Chunki bunday jamiyatda adolatli va mustaqil sud, qonun ustuvorligi mavjud bo'lmaydi. Bu jamiyatda sog'liqni saqlash sohasida ham huquqlar himoya qilinmaydi, mamlakatda kasalliklar va o'limlar soni oshib ketadi. Siz hatto fuqarolik huquqlaringizdan, mamlakatni boshqarishda ishtirok etish huquqidan ham foydalana olmaysiz. Bunday jamiyatda adolatli saylov tizimi mavjud bo'lmaydi va mamlakatda bo'layotgan tartibsizliklar haqida hech kim murojaat qilmaydi, chunki mazkur davlatda so'z erkinligi ham mavjud bo'lmaydi. Ba'zi bir mamlakatlarda inson huquqlar qisman tan olinadi. Qoidaga ko'ra, harbiy kuch bilan istilo etilgan hududlarda inson huquqlari bilan bog'liq vaziyat salbiy ko'rinishda bo'ladi. Suriya, Ukraina, Afrikaning ko'plab mamlakatlarida 2022-yilda harbiy mojarolar yuz berdi. Inson huquqlari nafaqat mojarolar yuz berayotgan mamlakatlarda, balki tinch davlatlarda ham buziladi. Bunga Rossiya, Shimoliy Koreya, Afg'oniston, Turkmanistonni misol qilib keltirish mumkin.

Inson huquqlarini hukmron hokimiyatning o'zboshimchaliklaridan himoya qilish g'oyasi XX asrda, ayniqsa Millatlar Ligasi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti tashkil etilganidan beri o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi jahon urushi inson huquqlarini xalqaro sahnaga olib chiqdi. Ushbu urushda sodir etilgan barcha dahshatli vahshiyliklardan, jumladan, harbiy jinoyatlardan so'ng, xalqaro huquqiy normalarining yangi tizimini yaratish, inson huquqlarini biz bugungi kunda biladigan darajada himoya qilishga qaratilgan normalarni ishlab chiqish zarurati tug'ildi. 1945-yil 26-iyunda imzolangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida BMTning asosiy vazifasi "keyingi avlodlarni urush balosidan qutqarish" ekanligi belgilab qo'yilgan[2]. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi BMTning inson huquqlari bo'yicha komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 1948-yil 10-dekabrda Bosh Assambleyaning yig'ilishida qabul qilingan. Shubhasiz, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining qabul qilinishi juda katta yutuq bo'ldi va bugungi kunda deklaratsiya inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha dunyodagi eng muhim hujjat bo'lib qolmoqda. Garchi yuridik kuchga ega bo'lmasa ham deklaratsiya inson huquqlari bo'yicha milliy, mintaqaviy yoki xalqaro darajada ko'plab normalarning qabul qilinishiga asos bo'ldi. O'sha vaqtdan buyon xalqaro hamjamiyat tomonidan inson huquqlarini ifodalaydigan bir qator fundamental normalar ishlab chiqildi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingandan keyin dunyoning turli burchakidagi mamlakatlar o'zlarining inson huquqlarini himoya qilish borasidagi normativ hujjatlarini qabul qilishdi. Bugungi kunda Afrika, Amerika va Yevropa mintaqalarida inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha mintaqaviy institutlar mavjud. Arab dunyosi va Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasi (ASEAN) mamlakatlarida ham inson huquqlari standartlarini institutsionalizatsiya qilish choralari

ko'rilmogda. Ammo, shu bilan birga, dunyoning bu qismidagi ko'plab davlatlar BMTning asosiy shartnoma va konvensiyalarini ham ratifikatsiya qilganlar va inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha majburiyatlarni olgan.

Mamlakatimizda inson huquqlarining himoya qilinishi zamon talablariga mos ravishda olib borilayotgani o'lim jazosining bekor qilinishida o'z aksini topdi. 2005-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida "Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo'lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o'lim jazosini chiqarib tashlashdir"[3], - deb qayd etgan. Shuni hayotga tatbiq etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda aholining barcha qatlamlarining huquqlarini himoya qilayotganini guvohi bo'layapmiz. O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan yoshlarga katta e'tibor berildi. Ular har tomonlama qo'llab-quvvatlandi. Yoshlarning huquqlarini ta'minlash va himoya qilish uchun zarur bo'lgan sharoitlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri deb hisoblanildi. Yoshlarning huquqlarini himoya qiladigan ko'plab hujjatlar, qonunlar, farmonlar qabul qilindi. Xususan, inson huquqlari bo'yicha milliy markazning tashabbusi bilan 2007-yilda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" qonun qabul qilindi. 4 bob, 32 moddadan iborat bo'lgan ushbu qonunda bolalarning erkinligi, ularning yashash huquqi, shaxsiy daxlsizligi, o'z fikrini erkin ifoda etishi, tug'ilgan paytdan e'tiboran fuqaroligiga ega bo'lishi, turar joyli bo'lishi va boshqa huquqlari ifodalangan[4]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili o'rinbosari – Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etilishi bevosita bolalarning huquqlarini himoya qilish, ta'minlash, ifodalash maqsadga yo'naltirilgan. Yosh avlodning sifatli ta'lim olishi, sog'lom bo'lib o'sishi, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishi, ularning madaniyat, sport, kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida turli xil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'p marotaba ta'kidlagani kabi dunyoda suv muammosidan keyingi muammo insoniyat salohiyatining yarmini tashkil qiladigan xotin-qizlarning jamiyatdagi holati va roli, ya'ni gender tengsizlikdir. Statistika e'tibor beradigan bo'lsak, ayollar erkaklarga nisbatan ikki barobar kam maosh olishini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga jahon mamlakatlari parlamentlari deputatlarining atigi 24 foizi ayollardir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tashkil etilganidan buyon xotin-qizlar huquqlarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. 1975-yil BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan xotin-qizlar yili deb e'lon qilindi. Hozirgi kunda 143 mamlakat Konstitutsiyasida erkaklar va ayollarning tengligi kafolatlangan. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekistonda xotin-qizlar har tomonlama qo'llab-quvvatlandi, ularning asrlar davomida toptalgan huquqlari himoya qilina boshlandi, onalik va bolalikni himoya qilishning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi, ayollarning davlat va jamoat boshqaruvidagi vakolatlari ko'paytirib borildi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o'z o'rnini mustahkamlashi, ularning har tomonlama rivojlanishi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Jamiyat hayotining barcha sohalarida erkaklar va ayollar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlar yaratish, ta'lim muassasalarida, ish joyida va boshqa jamoat joylarida xotin-qizlarga nisbatan hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladigan "Xotin-qizlar va Erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Qonunda

gender tengligi, ayollarni kamsitish turlari, ularning davlat boshqaruvidagi roli, ishga qabul qilinish va boshqa ko'plab hollarda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha normalar o'z aksini topgan.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, insonning o'z erkinliklari, huquqlari va manfaatlar uchun davom etgan uzoq kurashda bir qator mamlakatlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlari, ya'ni "Huquqlar to'g'risidagi petitsiya", "Erkinlikning buyuk xartiyasi", "Huquqlar to'g'risidagi bill" da o'z moddiy ifodasini topgan. Bizning davrga kelib "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning tan olinishi inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirilishi, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni qurish uchun zamin yaratdi. Inson huquqlariga bo'lgan e'tibor jamiyat a'zolari uchun, shu bilan birga har xil soha vakillari uchun bir qancha afzalliklar berdi. Jumladan, inson huquqlarini konstitutsiyaviy normalar bilan kafolatlanishi, xodimlarni majburiy mehnat va kamsitilishlardan ozod etilishi, voyaga yetmaganlarning davlat tomonidan himoyaga olinishi va ularga imtiyozlar berilishi, ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun qonunlarga o'zgartirishlar kiritilishi, ularga himoya ordenlarining berilishi, shuningdek har bir shaxsning daxlsizligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

References:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan
2. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi. Birlashgan Millatlar Konferentsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida 1945-yil 26-iyunda San Fransiskoda imzolangan
3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: "O'zbekiston", 2005-yil. 48-bet
4. "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent sh., 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son